

## BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG‘LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH (Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi misolida)

Elchiboyev Sirojiddin Fahriddinovich

**Annotatsiya.** *O‘zbekiston Respublikasidagi byudjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobini tartibga soluvchi amaliyotlarni tahlil qilish, ularni takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlarini aniqlash va ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda milliy qonunchilik asoslari va xalqaro standartlar tahlil qilinib, byudjet tashkilotlari moliyaviy boshqaruviga oid mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha strategik takliflar beriladi. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlat moliyaviy boshqaruv tizimining muhim qismini tashkil etadi.*

**Kalit So‘Zlar:** *Byudjet tashkilotlari, pul mablag‘lari hisobi, moliyaviy boshqaruv, shaffoflik, moliyaviy intizom, xalqaro standartlar, korrupsiyaga qarshi kurash, moliyaviy resurslar.*

**Abstract.** *It consists in analyzing the practices regulating the accounting of funds in the budget organizations of the Republic of Uzbekistan, identifying modern approaches to their improvement, and developing scientific and practical recommendations to increase the efficiency of these processes. The research analyzes national legal frameworks and international standards, and makes strategic proposals for solving existing problems related to financial management of budget organizations. Effective use of financial resources in budget organizations is an important part of the state financial management system.*

**Key Words:** *Budget organizations, cash accounting, financial management, transparency, financial discipline, international standards, fight against corruption, financial resources.*

### KIRISH

Byudjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasida davlat sektorini samarali boshqarish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurash borasida dolzarb masaladir. Mazkur mavzu O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlar yo‘lida davlat moliyaviy boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashtirish uchun zaruriy qadamdir.

### MUHOKAMA VA TAHLIL

Budjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo‘yicha budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar buxgalteriya hisobini O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining uslubiy ko‘rsatmalariga hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkil qiladilar.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, zarur hollarda, o'zlarining tizimidagi budget tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida ko'rsatmalar ishlab chiqarishlari mumkin.



### 1-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining 2024-yil 1-yarim yilligi ijrosi

Manba: Muallif tomonidan Internet ma'lumotlari orqali tayyorlandi

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilar (ichki, tashqi) ni daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni bo'yicha o'z vaqtida, to'liq hamda aniq buxgalteriya va moliyaviy axborotlari bilan ta'minlab berishdan iborat.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Buxgalteriya hisobini amaldagi tegishli me'yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida tashkil etish;
- Budget tashkilotlarida budget va budgetdan tashqari mablag'lardan maqsadli foydalanishni ta'minlash;
- Daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni muomalalarini hujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;
- Budget tashkilotlari buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- Budget tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi natijalarini shakllantirish;
- Budget ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlarni tuzishdan iboratdir;
- Buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini alohida hususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi nazorat qilinishi;
2. Kassa va xaqiqiy xarajatlar hisobini yuritilishi;
3. Budget tasnifi asosida hisobni tashkil etilishi va hisobotlarni shakllantirilishi;
4. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarni me'yoriy hujjatlarga qat'iy amal qilingan xolda yuritilishi.

## XULOSA

Tadqiqotda budjet tashkilotlari faoliyatida budjetdan tashqari jamg'armalar hisobini yuritishga oid me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Unga ko'ra, tegishli qonun va qarorlar jamg'armalar hisobini shaffof va samarali yuritishni ta'minlaydi.

Hisob tizimini tashkil etishning uslubiy yondashuvlari, ayniqsa, moliyaviy monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Bu yondashuvlar budjetdan tashqari mablag'larni samarali boshqarishga yordam beradi.

Tadqiqot natijasida jamg'armalar hisobini yuritishda shaffoflik va hisobdorlikning oshirilishi zarurligi aniqlangan. Hisobotlar xalqaro standartlarga mos kelishi uchun ularni modernizatsiya qilish talabi mavjud.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:

–O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

–byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;

–tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

–Tashkilotlar belgilangan shaklda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetani har yili tuzadilar va tasdiqlaydilar. Bunda, tashkilotlar byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlarini va xarajatlarini rejalashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

6. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi (2020). O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. Available at: <https://lex.uz/docs/2054763> (Accessed: 20 September 2024).

7. Alimardonov, A. (2024). Moliyaviy hisobni takomillashtirish: byudjetdan tashqari mablag'lar nazorati. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Jurnali*, 3(2), pp. 45-58.

8. Anderson, J. (2023). *Public Sector Financial Management: International Practices and Challenges*. Oxford University Press.

9. Auerbach, A.J. and Smetters, K. (2023). *The Economics of Public Spending*. Cambridge University Press.

10. Bardhan, P. (2023). The Role of Government in the Economy. *The Journal of Economic Perspectives*, 37(1), pp. 5-28.